



2018 yilning yanvar oyida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar oyida Respublikada 1966,4 mlrd.so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,9 %ni tashkil etdi va 2016 yilning yanvar oyiga nisbatan 8,2 % punktga kamaydi.

RAQAMLAR:

Qurilish-montaj
ishlari hajmi -
1966,4 mlrd.so'm


Yirik qurilish-pudrat
tashkilotlari ulushi - **15,1 %**

Kichik korxonalar va
mikrofimlar ulushi - **54,3 %**


Qurilishda norasmiy
sektorning ulushi - **30,6 %**

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 297,3 mlrd.so'mni yoki 64,2 %ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,7 % punktga kamaydi.

Joriy davrda Respublikamizning aksariyat hududlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi.



2018 yil yanvar oyida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati



Qurilish hajmining eng yuqori darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:


- Navoiy viloyatida (107,7 mlrd.so'm yoki 116,0 %) - "Amudaryo-Zarafshon" suv quvurining uchinchi liniyasini nasos stantsiyalarini rekonstruksiya qilish, "Ko'kpatas" va "Daugiztau" konlarini qazib olish texnologiyasini takomillashtirish hisobidan qurish;

- Toshkent shahrida (453,6 mlrd.so'm yoki 113,4 %) - ko'prik va Yunusobod metro liniyasi qurilishi, Toshkentda temir yo'l halqasining qurilishi, Toshkent pedagogika institutini rekonstruksiya qilish, 2-aeroportni rekonstruksiya qilish, milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;

- Namangan viloyatida (108,9 mlrd.so'm yoki 106,5 %) - Chust va Uychi tumanlarida ko'prik qurilishi, Norin daryosi hududida avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash va ko'prik qurilishi hisobiga amalga oshirildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning mos davriga nisbatan qurilish ishlari hajmining kamayishi Buxoro viloyatida - 95,3% (170,1 mlrd.so'm), Xorazm viloyatida - 96,1% (82,0 mlrd.so'm) qayd etildi.

**2018 yilning yanvar oyida qurilish ishlari umumiy hajmida hudularning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Toshkent shahrida bajarilgan bo'lib, respublikada bajarilgan jami qurilish ishlarining 23,1 %ini tashkil etdi, Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari esa 8,6 %ni, Samarqand viloyatida 8,4 %, Farg'ona viloyatida 8,3 % va Qashqadaryo viloyatida 8,1 %ni tashkil etdi.

Respublikada amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo'yicha past ko'rsatkichlar: Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich eng past 1,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, Jizzax va Xorazm viloyatlarida ushbu ko'rsatkich 4,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,6 %ni tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning Respublikadagi ulushi ham o'zgarib boradi.

2017 yilning yanvar oyida
hududlar kesimida qurilish ishlari

<i>Hududlar</i>	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan: hududiy qurilish pudrat tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
O'zbekiston Respublikasi	1966,4	93,9	1113,0	102,8
Qoraqalpog'iston Respublikasi	89,5	101,6	56,0	93,7
viloyatlar:				
Andijon	135,0	102,1	98,6	103,1
Buxoro	170,1	95,3	79,0	95,9
Jizzax	82,5	100,6	49,2	107,9
Qashqadaryo	158,5	100,5	99,8	114,4
Navoiy	107,7	116,0	54,0	100,8
Namangan	108,9	106,5	75,4	107,4
Samarqand	165,2	100,5	86,2	107,1
Surxondaryo	103,8	101,9	65,1	109,1
Sirdaryo	36,8	100,2	28,3	104,0
Toshkent	108,8	101,4	50,8	103,7
Farg'ona	164,1	101,2	104,6	100,4
Xorazm	82,0	96,1	48,7	94,2
Toshkent sh.	453,6	113,4	217,4	101,0


Hududiy qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan 2018 yil yanvar oyida 1113,0 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilib, umumiy qurilish ishlari hajmining 56,6 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,8 %ni tashkil qildi.

Hududiy qurilish-pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish hajmining eng yuqori darajasi Qashqadaryo (99,8 mlrd.so'm yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 114,4 %), Surxondaryo (mos ravishda, 65,1 mlrd.so'm yoki 114,4 %), Jizzax (49,2 mlrd.so'm yoki 107,9 %) va Namangan (75,4 mlrd.so'm yoki 107,4 %) viloyatlarida kuzatildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
(mlrd.so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Fuqarolik obyektlari qurilishi va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi ham o'tgan yilga nisbatan ko'paygan.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

J.Saipov
(0371) 230-80-56